

"O'zbekiston - Xitoy munosabatlari tarixidan" nomli to'plam nashr etildi

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan "Fan ziyosi" nashriyotida "O'zbekiston - Xitoy munosabatlari tarixidan" nomli to'plam nashr etildi.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, unda ikki davlat aloqalari tarixidagi kam ma'lum bo'lgan va qiziqarli yorqin sahifalari haqida so'z yuritiladi.

To'plamning birinchi qismida o'zbekistonliklar ajdodlarining qadimiy va o'rta asrlarda Xitoy sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot keltiriladi. Asarning ikkinchi qismida O'zbekiston va Xitoy tarixidagi iqtisodiy, diplomatik va madaniy aloqalarining ayrim sahifalarini yoritishga e'tibor qaratiladi.

